PEDAGOGIK MAHORAT VA TARBIYA PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISHDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Ergashev R. N., GDPI professori,
E-mail: ergashev@mail.ru
Ulug‘ova Ch. B.,GDPI magistranti
E-mail: charosulugov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘qituvchining pedagogik mahorati va tarbiya pedagogikasini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Dunyoning yetakchi ta’lim tizimlari – Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlar tajribasi asosida o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik mahorati va intellektual salohiyatini oshirish, zamonaviy tarbiya yondashuvlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. pedagogik mahorat, tarbiya pedagogikasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, individal yondashuv, махсус методик ёндашув, ijtimoiy va madaniy integratsiya, ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim va tarbiya integratsiyasi.

Аннотация. данные тезисы анализируют возможности использования иностранного опытов в развитие педагогического мастерства учителя и педагогике воспитания. Рассматривается повышения профессионально-педагогического мастерства и интеллектуального потенциала учителя на основе изучения ведущих образовательных систем мира – опыта таких государств как Финляндия, Сингапур, Япония, адаптации современных воспитательных подходов в систему национального воспитания.

Ключевые слова. педагогическое мастерство, педагогика воспитания, инновационные педагогические технологии, информационные технологии , индивидуальный подход, специальный методический подход, социальная и культурная интеграция, модернизация системы образования и воспитания, интеграция образования и воспитания.

Annotation. these theses analyze the possibilities of using foreign experience in the development of pedagogical skills of teachers and pedagogy of education. The article considers the improvement of professional and pedagogical skills and intellectual potential of teachers based on the study of the world's leading educational systems - the experience of such countries as Finland,

Singapore, Japan, the adaptation of modern educational approaches to the system of national education.

Key words: pedagogical skills, pedagogy of education, innovative pedagogical technologies, information technologies, individual approach, special methodological approach, social and cultural integration, modernization of the education and upbringing system, integration of education and upbringing.

O‘zbekiston ta'lim tizimida xorij tajribalarini qo‘llash va innovatsion metodlarni tatbiq etish, ta'lim va tarbiya sohasida davlatning strategik maqsadlariga, jumladan, 2021-2030 yillarga mo‘ljallangan ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bu konsepsiyada pedagogik mahoratni oshirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng joriy etish yo‘nalishlari o‘rganilgan va o‘quvchilarning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishi bo‘yicha xorijiy metodlar asosida yondashuvlar taklif qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishga doir davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori ham xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy tizimga moslashtirishni o‘zida aks ettirgan[45].

Pedagogik mahorat va tarbiya pedagogikasini rivojlantirishda ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Xorij tajribalarining ta'siri nafaqat metodik, balki umumiy pedagogik yondashuvlarning o‘zgarishiga ham olib keladi. Quyidagi xorijiy tajribalar pedagogik mahoratni oshirishda va tarbiya pedagogikasini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin[46].

Finlyandiya pedagogikasi o‘quv tizimi pedagogik mahoratni oshirishda ilg‘or tajribaga ega. Ularning tizimi o‘qituvchilarga katta erkinlik va javobgarlikni taqdim etadi. O‘qituvchilar malakasini oshirish, doimiy ravishda kurslar va seminarlar tashkil etish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga e'tibor qaratish, sinfdagi o‘quv jarayonini interфaoл tarzda olib borish Finlyandiya tizimining asosiy tamoyillaridan biridir.

Shvetsiyada integratsiya va diferensiallashtirish. Shvetsiya pedagogikasida o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab ta'lim tizimi ishlab chiqilgan. Bunda pedagoglar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, maxsus metod va yondashuvlarni qo‘llaydilar. Tarbiya jarayonida ijtimoiy va madaniy integratsiya muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘quvchilarda hamjihatlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Singapurda mustahkam asos va innovatsion yondashuvlar. Singapurda ta'lim tizimi yuqori samaradorligi bilan tanilgan. O‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirishga chaqiradigan tizimda innovatsion pedagogik yondashuvlar keng qo‘llaniladi. Misol uchun, o‘qituvchilarning individual rivojlanish rejalari va maxsus metodik yondashuvlar pedagogik mahoratni oshirishga qaratilgan.

[45] https://e-qaror.gov.uz/doc/1266692

[46].O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishga doir davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori .

Yaponiyada tarbiya va madaniyat. Yaponiya ta'limida o‘quvchilarni faqat ilmiy bilimlar bilan ta'minlash emas, balki tarbiya berish ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlarda "koretsu" (xizmat qilish madaniyati) va "giri" (o‘zaro hurmat) kabi tamoyillarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. O‘qituvchilar tarbiya jarayonida shaxsiy namunalar ko‘rsatib, o‘quvchilarga hamdardlik va hurmat hissini shakllantiradi.

AQShda pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish. AQShda ta'lim tizimi o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatishga katta e'tibor beradi. O‘qituvchilar pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash orqali mahoratni oshirishadi. Virtual ta'lim va onlayn kurslar o‘quvchilarning mustaqil ishlashini rivojlantirishda samarali bo‘ladi.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi uchun ta'lim va tarbiya tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Xususan, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish. Ilg‘or xorijiy tajribalar, masalan, Finlyandiya, Shvetsiya, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tarbiya va ta'lim tizimlari o‘rganilishi kerak. Ushbu mamlakatlarda: o‘quvchilarga individual yondashuv, tarbiya va ilmiy bilimlarni uyg‘unlashtirish, jtimoiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish kabi yondashuvlar samarali ishlamoqda.O‘rganilgan tajribalar asosida O‘zbekistonning ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish va yangilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim[47].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-maydagi "O‘zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja" . Bu reja, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro tajribalarni joriy etish jarayonlarini ko‘rib chiqadi.

1. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish: Ilg‘or xorijiy tajribalar, masalan, Finlyandiya, Shvetsiya, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tarbiya va ta'lim tizimlari o‘rganilishi kerak.

Ushbu mamlakatlarda o‘quvchilarga individual yondashuv, Tarbiya va ilmiy bilimlarni uyg‘unlashtirish, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish kabi yondashuvlar samarali ishlamoqda. O‘rganilgan tajribalar asosida O‘zbekistonning ta'lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish va yangilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

2. Pedagogik mahoratni oshirish: Xorijiy tajribalardan o‘rganilgan usullar va yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish zarur. Shuningdek, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, innovatsion metodlarni o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llashni tashkil etish kerak.

3. Tarbiya jarayonida individual yondashuvni joriy etish: Xorijiy tajribalarda tarbiya jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga individual yordam ko‘rsatish, ularning

[47] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori

psixologik va ijtimoiy holatlarini hisobga olish, ular bilan samarali muloqot qilish tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta'minlaydi.

4. Tarbiya va ta'limning integratsiyasi: Xorij tajribalarida tarbiya va ta'limni uyg‘unlashtirishga katta e'tibor beriladi. O‘quvchilarga ilmiy bilimlar bilan birga axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham o‘rgatish, ularni mustaqil fikrlashga, mas'uliyatli bo‘lishga, jamoa bilan ishlashga o‘rgatish kerak. Ushbu yondashuvlarni O‘zbekistonda kengaytirish lozim.

5. Mahalliy sharoitga moslashtirish: Xorijiy tajribalardan foydalanish jarayonida mahalliy sharoitlar, milliy qadriyatlar va madaniyatni hisobga olish zarur. Har bir mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlari bor, shuning uchun xorijiy yondashuvlarni to‘g‘ri moslashtirish kerak.

6. O‘quvchilarni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash: Tarbiya jarayonida o‘quvchilarni jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash, ularda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish, ularni adolatli, halol, vatanparvar va madaniyatli shaxslar sifatida shakllantirishga e'tibor qaratish lozim[48].

O‘zbekiston ta’lim tizimining bugungi bosqichida pedagogik mahoratni rivojlantirish va tarbiya jarayonini takomillashtirishda xorijiy ilg‘or tajribalarning ahamiyati katta. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiya ta’lim tizimidagi o‘qituvchiga bo‘lgan ishonch, Singapurdagi qat’iy malaka oshirish tizimi, Yaponiya tarbiyasidagi an’anaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlik – bularning barchasi o‘zbek ta’limi uchun foydali andoza bo‘lishi mumkin[49].

Ilg‘or xorijiy tajribalarning pedagogik mahoratga ta’siri

1-jadval

	O‘qtuvchiga ishonch, stressiz muhit, individual yondoshuv	O‘qtuvchining erkinligini oshirish orqali dars sifatini yaxshilash
	Malaka oshirishning doimiyligi, innovatsion texnologiyalar	Onlayn,platformalarda uzluksiz o‘qtuvchi tayyorlash
	An’anaviy qadiryatlarga tayanish jamoviy tarbiya	Milliy tarbiya tizimini kuchaytirish
	Inson huquqlari va tenglikka asoslangan yondoshuv	Tarbiya, tizimida demokratik muhit yaratish

[48]Mamatov A. Ta’lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar. – T.: Iqtisodiyot, 2019.

[49] Jabborov Q. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2010.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra O‘zbekistonning milliy ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni to‘g‘ri va selektiv joriy etish zarur O‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda xorijiy o‘quv-uslubiy materiallar, treninglar va malaka oshirish dasturlaridan samarali foydalanilmoqda tarbiya tizimida esa oila–maktab–jamiyat hamkorligi asosida, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tobora kuchayib bormoqda.

Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishda quyidagi muhim natijalar qayd etildi: 1. Pedagogik innovatsiyalar o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi; 2. Tarbiya jarayonining uzluksiz va tizimli tashkil etilishi o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi; 3. Milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan xorijiy yondashuvlar madaniyatlararo moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Shu asosda, O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy tajriba va mahalliy ehtiyojlar uyg‘unligi asosida o‘qituvchi pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan maxsus platformalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishda xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy samara bermoqda.

Singapurda o‘qituvchilar yiliga kamida 100 soatlik malaka oshirish kurslarida qatnashadi. O‘zbekistonda esa “Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash milliy dasturi” asosida bu raqam oshirilmoqda.

Finlyandiyada darslar o‘quvchining qiziqishi asosida olib boriladi. Shu modeldan ilhomlanib, O‘zbekistonda “STEAM ta’limi” bo‘yicha maktablar tashkil qilinmoqda.

Yaponiya maktablarida “gakko souji” – o‘quvchilar maktabni tozalashda qatnashadi, bu orqali ularda mas’uliyat va jamoaviylik shakllanadi. O‘zbekistonda bu amaliyot “Yosh ekolog” to‘garaklari orqali kiritilmoqda.

Xulosa

Ushbu qaror, tarbiya rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Xorij tajribalarini o‘rganish va tatbiq etish orqali biz o‘quvchilarga yanada sifatli ta'lim va tarbiya berish, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Qo‘shimcha chora-tadbirlar: Xorijiy pedagogik metodlar va yondashuvlarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish.O‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari va seminarlarda xorijiy metodlar bo‘yicha ta'lim berish.Tarbiya va ta'lim sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Tavsiya etiladigan vazifalar: xorijiy tajribalarni tahlil qilish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish; mahalliy sharoitga moslashtirilgan yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqish; o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari orqali pedagogik mahoratni oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishga doir davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-oktabrdagi PQ–3289-sonli “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.